

2018-YIL – FAOL TADBIRKORLIK, INNOVATSION G‘OYALAR  
VA TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:4 (67169)  
2018-yil 22-yanvar

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

**USHBU SONDA:**



**YAXSHILIK QILISHDAN, GO‘ZALLIKKA  
INTILISHDAN HECH QACHON  
CHARCHAMANG**

3-bet

**QIRDA QUYUN  
BILAN KURASHGAN  
BOLA**



5-bet



**SHAHRIYOR -  
KASHFIYOTCHI**

7-bet

**HIKMAT TO‘LA MENING KITOBIM,  
QALBIMDAGI NURLI OFTOBIM!**

Sardor Shomuxsumov poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 263-umumta‘lim maktabining 2-«E» sinf o‘quvchisi. She‘r yodlash, ertak kitoblar o‘qish uning eng sevimli mashg‘uloti. Ustozi Tatyana Ibragimova ham bilinga chanqoq, izlanuvchan o‘quvchisi bilan doimo faxrlanadi. Eng yaqin do‘sti, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 207-umumta‘lim maktabining 4-«V» sinf o‘quvchisi Oybek Azimov bilan kitoblar haqida suhbatlashish unga bir o‘lam zavq bag‘ishlaydi.



Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.

Shavkat MIRZIYOYEV

## USTOZIM CHEHRASIDAGI TABASSUM

Har tong uyqudan yaxshi niyatlar bilan uyg'onaman.

Aziz insonlarimdan duo olgach, ostonadan katta maqsadlar sari qadam tashlayman. Orzular meni marralar sari yetaklaydi.



Darsdan so'ng 21-«Bolalar musiqa va san'ati» maktabida musiqa sirlaridan saboq olaman. Ustozlarim menga fortepiano va dutor chalishni o'rgatishdan tashqari, sahnada o'zinni qanday tutishim kerakligini

uqti-rishadi. Yaqinda «Kamalak» yulduzlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Sahnadagi boshlovchi ism-sharifimni e'lon qilganida, ota-

namam va ustozimning tabassum bilan menga boqib turganlarini ko'rib, o'zinni baxtli his etdim.

Muvaffaqiyatlar sari odimlar ekanman, unga erishishning sirlarini ham anglaganday bo'ldim.

Durdona NURULLAYEVA,

Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi

237-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

## BUVIJONIM XURSAND BO'LSALAR

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining quvnoq ijodkorlari!

Gazetaning har bir sonini buvijonim bilan birga kuzatib boramiz. Unda berib borilayotgan tengdoshlarimning ijod namunalari meni ham ijod qilishga undadi. Adabiyotga qiziqishim tufayli bo'sh vaqtlarimda she'r va maqolalar yozib turaman. Barcha ijod namunalari birinchi bo'lib buvijonimga o'qib beraman. Hozir ular 78 yoshdalar. She'r va maqolalarim gazetada chop etilsa, buvim juda xursand bo'ladi.

Buvijonim, buvijon,  
U bizlarga mehribon.  
Har dam bizni o'ylaydi,  
Yaxshi ertak so'ylaydi.

Sevinchoy RO'ZIMATOVA,

Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

## SO'ROVNOGAGA JAVOBIM



1 Men «Tong yulduzi» gazetasini 5-sinf dan buyon muntazam o'qib boraman. Har o'quv yilida ushbu nashrga sinfdosh do'stlarim bilan birga obuna bo'lamiz. Ammo gazeta poytaxtdan bizga ancha kech yetib keladi. Maktabimiz qoshida «Yosh qalamkashlar» to'garagi faoliyat yuritayotgan bo'lib, mashg'ulot a'zolarining ijod namunalari «Tong yulduzi» sahifalarida yoritib borilmoqda. Biz sinfdoshlarimiz bilan gazetaning har bir sahifasini o'qib, mulohaza yuritishni yaxshi ko'ramiz.

2 «Bolalik kunlarimda» rukni ostida berib borilayotgan maqolalar orqali shoir va yozuvchilarning hayoti, ularning bolalik xotiralarini bilish menga juda yoqadi. Ingliz tili sahifasi va sport haqidagi maqolalarni ham maroq bilan o'qiyman.

3 Surxon vohasiga oid urf-odatlar, marosimlar, qadriyatlar, buyuk siymolarimizning ijod yo'li va hikmatli so'zlari haqida gazetada ko'proq ma'lumotlar berilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Zebo QULMO'MINOVA,

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 17-DIUMning 6-«V» sinf o'quvchisi

# KIMGA QANDAY KITOB

yoxud bolalarga mo'ljallangan axborotlarning qonuniy tasnifi

**Bolalik shunday davrki, unda insonning o'z «men»i shakllanadi. Kuzatgan bo'lsangiz, bola ilk yoshida-yoq kitobning muqovasi, suratlariga e'tibor beradi.**

Bu davrda u butun olamni eng samimiy, eng go'zal tasavvur qiladi. Shu bois, bolalar uchun mo'ljallangan har qanday kitob uning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmaydigan, tanlangan mavzu uning ruhiy olamini boyitishga xizmat qilishi kerak. Sababi, bolalar bilan biz kattalarning dunyoqarashida keskin farq bo'lgani kabi ularning ruhiy olami ham tafovutli. Aytaylik, maktabgacha yoshda bo'lgan kichikintoylar dunyoni faqat shodlik va quvonch orqali ko'rishadi va tasavvur qilishadi. Shuning uchun bolalar adabiyotida, eng avvalo, mavzuning tarbiyaviy tomonlarini hisobga olish talab etiladi. Bola ko'p hollarda kitob yoki ertak qahramonlariga taqlid qiladi. Ulardek jasoratli, qat'iyatli bo'lishga, o'z so'zining ustidan chiqishga harakat qiladi. Salbiy qahramonlardagi illatlardan xulosa chiqaradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kitob farzandlarimiz uchun chin ma'nodagi tarbiya vositasidir.

Xabaringiz bor, «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida kitobni bolaning yoshidan kelib chiqqan holda nashr etish belgilab qo'yildi. Aytib o'tish lozimki, shu paytgacha ushbu yo'nalishda aniq bir me'yor ishlab chiqilmagan edi. Bolalik davri uning rivojlanishi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin. Ya'ni, 1 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar narsalar, ranglarni bir-biridan ajratishni o'rga-

nishdan tashqari, jismoniy jihatdan juda shiddatli o'sish davri hisoblanadi. Bu davrda ularga kitob o'qib berishdan tashqari, ularning o'zlari ham mutolaaga intilishlarini anglash qiyin emas. Ikki-uch yosh bo'lgach, kitob varaqlab o'ziga tanish bo'lib qolgan rasmlarni qidiradi. Bu davrda bolalarga rasmi hamda o'yinchoq kitoblarni

mavjud bo'lib, ular «Pandnoma», «Nasihatnoma», «Axloq kitoblari», Kaykovusning «Qobusnoma», Shayx Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston» asarlaridir. Shuningdek, Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Mantiq ut-tayr» dostonlari o'zbek bolalar adabiyotida pand-nasihat yo'nalishidagi asarlar bo'lib, ular navqiron avlodni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda. Biz noshirlar bolalar uchun kitob chop



**Agar axborot mahsulotida «0+» yozuvi aks ettirilgan bo'lsa, demak, bu barcha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan, «18+» yozuvi aks ettirilgan bo'lsa, barcha yoshdagi bolalar uchun taqiqlangan hisoblanadi.**

tavsiya qilish mumkin. Bunda kitobning rangi va ko'rinishi boshqalaridan ajralib turishi lozim. Mutolaa jarayonida o'spirinlik davri alohida o'rin egallaydi. Negaki, bu davrda bolada ham ruhiy, ham jismoniy faollik oshadi. Masalan, milliy qahramonlarimiz – Jalolidin Manguberdi, Shiroq, To'maris jasorati aks etgan asarlar bu davr kitobxonlari uchun mos keladi. Bola kitob o'qiganda, uning qahramonlari bilan yashaydi, ushbu voqealar o'z hayotida bo'layotganday tasavvur qiladi. Sinfda, o'rtoqlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishni istaydi. Hayotda o'zi havas qiladigan idealini qidiradi. Ma'lumki, shu paytgacha qadar bolalar uchun mo'ljallangan ko'plab asarlar

etishda ana shu mezonlarga e'tibor berishimiz g'oyatda muhim sanaladi. Yangi Qonun bo'yicha axborot mahsulotlarining yoshga oid tasnifi 5 ta turga bo'linadi. Shuningdek, bolalarning ma'naviy olamini boyitishga, ularning tarbiyasini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan bugungi 5-10 ming nusxada emas, balki bir necha o'n ming nusxada chop etishga, farzandlarimizni kitobga yanada yaqinlashtirish, kitobga chin ma'noda oshno qilish uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solamiz. Zero, bugungi kunda qaysi soha vakili bo'lmaylik, barchamizni fidoyilikka chaqirayotgan muhtaram Prezidentimiz olib borayotgan xayrli ishlarga o'z hissamizni qo'shish har birimizning burchimizdir.

Davron ULUG'MURODOV,  
Cho'lpon nomidagi NMIU  
Bosh muharriri

Saharlab uyg'onib  
Nigohim ila  
Birlashtirib tun-u kun  
hamda to'rt unsur  
Abadiyat sari  
Tortdim bir chiziq...

Bahodir JALOLOV



Bugungi mehmonimiz: O'zbekiston xalq rassomi Bahodir JALOLOV.

## YAXSHILIK QILISHDAN, GO'ZALLIKKA INTILISHDAN HECH QACHON CHARCHAMANG

### OTAM BIRINCHI USTOZIM

Toshkent shahrining «Olmazor» mahallasida ishchilar oilasida tug'ilganman. Oilada 4 farzandimiz. Otam asli marg'ilonlik, onam esa Toshkentdan. Dadam Ikkinchi jahon urushidan keyin taqdir taqozosi bilan Toshkentda yashagan. Keyinchalik onam bilan tanishib, birga turmush qurgan.

Kamxarj, «Ko'rasiga qarab oyoq uzatadigan» oilada ulg'ayganman. Shunday bo'lsa-da, ota-onam biz farzandlarni yaxshi o'qishimiz uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilgan. Bu borada men o'zimni eng baxtli inson deb bilaman. Dadam G'afur G'ulom bilan yaqin do'st bo'lgan. Esimda, bolaligimda ular biznikiga, biz esa ularnikiga tez-tez mehmonga borardik. Otam ijodkor bo'lmasa-da, she'riyatni, san'atni juda nozik tushunardi. Biror yaxshi she'r o'qisa, uzoq vaqt uning ta'sirida yurardi. Xullas, oilamiz uchun adabiyot, san'at begona bo'lmagan.

Adashmasam, 5-6 yoshimdan rasm chizma boshlaganman. U paytlarda hozirgiday stol-stul, zamonaviy kompyuter, internet qayoqda deysiz?! Biz farzandlar yerga eski sholcha to'shab, oy shul'asida dars tayyorlardik. Deyarli hamma oilada shunday sharoit edi. Zamon og'ir, odamlar zo'rg'a kun o'tqazishardi. Aka-ukalar bir-birining kiyimini kiyib katta bo'lishgan. Lekin hech kim nolimasdi.

Bir kuni rasm chizishga shu qadar berilib ketibman-ki, yonimga dadam kelganini ham sezmadim. Ular qog'ozdagi oxiriga yetmagan suratimga uzoq tikilib turdilar. Bilmadim, menda qandaydir iste'dod uchunini payqadilarmi, «O'g'lim, rasmingni ko'rib, bolaligim yodimga tushdi. Men ham rassom bo'lmoqchiydim. Afsus, orzularim ushalmadi. Lekin sen harakat qilib ko'r», dedilar. So'ng, ertasi kuni bozordan albom, akvarel va yarmi ko'k, yarmi qizil rangli koptok olib keldi. Qo'limga mo'yaqalamni tutqazib, «Shu koptokning rasmini chizib ber-chi», dedi va ishimni boshidan

oxirigacha sinchkovlik bilan kuzatib turdi. Otamning salobati bosdimi, suratni tugatgunimcha hamma yog'imga bo'yoq sachrab, terga botib ketdim. Dadam rasmini qo'llariga olib, «O'g'lim, senda noyob iqtidor bor ekan. Harakat qilsang, nimagadir erishishing mumkin», dedi. Bilasizmi, otamning bu so'zlari menga kuch bag'ishlagan. Agar intilsam, qo'limdan nimadir kelishini ich-ichimdan his qilganman. O'ylab qarasa, peshonamga rassom bo'lishdek qismat bitilganini o'shandayoq sezgan ekanman. Murg'ak qalbidam o'zining bolalik orzulari ro'yobini ko'ra olgan mehribon otajonim esa san'atdagi birinchi ustozim edi...

### CHUNKI SENDA «YURAK» BOR...

Shundan keyin butun vujudim bilan rasm chizishga berilib ketdim. Esimda, uyimda katta tut daraxti bo'lardi. Uning yonidagi ariqda shildirab suv oqar, atrofiga esa gullar, rayhonlar ekilgandi. O'sha bahavo joy mening tabiat qo'ynidagi «ijod ustaxonam» edi. Bu yerda mevalar, qurt-qumursqalar, o't-o'lanlarning rasmini chizardim. Ona tabiatning betakror ranglaridan bolalarcha hayratlanardim. O'zimni butunlay o'zga olamga tushib qolgandek his qilardim, go'yo.

Keyinchalik yadagilar bir yosh kichik bo'lishimga qaramay, meni Baxtiyor



Hovlimiz. 1964-yil.

akam bilan birga Qoratosh dahasidagi maktabga o'qishga berdi. Bilmadim, bolalikdan uquvli bo'lganim uchun «eplab ketadi» deyishganmi, xullas, maktabda ham a'lo baholarga o'qiganman.

Yozgi ta'tilda meni Farg'onadagi ammannikiga dam olishga yuborishardi. Eslayman, ammanning uyida katta bog'i bor edi. Birinchi bor ko'rganimda, bog'ning go'zalligidan hayratga tushganman. U yerda bobomdan haqiqiy o'zbek milliy urf-odatlarini o'rganganman. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyorning

hikmatlari, Imom at-Termiziy va Imom al-Buxoriy kabi buyuk bobolarimiz yozib qoldirgan hadislar bolalik ruhimga ozuqa bo'lgan. Ulg'ayib, oila qurgach, farzandlarim Oydin va Go'zal, nabiram Sarrani tarbiyalashda bu bilimlar menga juda-juda asqotdi.

6-sinfda o'qib yurganimda esa «Tong yulduzi» gazetasida rasmlarim chop etilgan. Dadam gazetani qo'lga olib, xursandligidan yig'lab yuborgandi. O'sha paytda dunyoda mendan baxtli inson yo'q edi, nazarimda. Rasmim chiqqan gazetani yer-u ko'kka ishonmasdim. Kechasi yostig'im ostiga qo'yib uxlardim. Yarim tunda uyg'onib, suratim bosilgan sahifaga bir qarab olmasam, ko'nglim joyiga tushmasdi. Aytmoqchimanki, bugungi yutuqlarimda «Tong yulduzi» gazetasining ham alohida o'rni bor.

Maktabda o'qib yurgan yillarim «O'quvchilar saroyi» qoshidagi tasviriy san'at to'garigiga qatnaganman. Ustozimiz 24-25 yoshlar atrofidagi bo'ylari uzun, ozg'indan kelgan yosh yigit edi. Biz uni Yura aka deb chaqirardik. Bir kuni u men chizgan natyurmortlarni ko'rib, «Agar harakat qilsang, kelajakda yaxshi rassom bo'lishing mumkin. Chunki senda «yurak» bor», degandi.

Keyinchalik rassomchilik texnikumi va hozirgi Sankt-Peterburg tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morchilik institutida tahsil oldim. Rossiyada o'qib yurganimda, Ermitajdagi haqiqiy san'at asarlaridan bahramand bo'ldim. Bu esa ham inson, ham ijodkor sifatida yuksalishimga xizmat qildi.

### MIKELANJELO QABRI YONIDA YIG'LAGANMAN

1978-yil Italiyaning Kalabriya shahrida ijodiy safarda bo'ldim. Ushbu



Rassomning dadasi Fazliddin ota va onasi Hamida aya. 1954-yil.

sayohat ijodimda o'chmas iz qoldirdi. Shaharning bosh ma'muriy binosi devorida «Mashaqqatdan yulduzlar sari» pannosini ishladim. Chizgan ishim italiyaliklarga ma'qul tushdi. Ular menga butun mamlakat bo'ylab sayohat qilishga sharoit yaratib berdi. Ushbu sehrli o'lkada Leonardo da Vinchi, Mikelanjeloning shoh asarlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Eh, o'sha paytdagi hayajonimni sizga so'z bilan ifodalab berolmayman. O'lmas ijodkorlarning betakror asarlarini ko'rib, qandaydir g'alati holga tushib qoldim. Chunki u paytda men o'zimni «buyuk rassom» deb bilardim-da. O'sha kezlarda «Men ham rassom bo'ldimmi?» degan o'kinch o'tdi, yuragimdan. Bir yilcha, balki undan ham ko'proq vaqt qo'limga mo'yaqalam ololmadim.

Safar bahonasida haqiqiy san'at olamiga tushib qolgandek edim, go'yo. Buyuk rassomlarning qabrini ham ziyorat qildim. Mikelanjelo qabri yonida esa ko'zlarimdan duv-duv yosh to'kildi...

Bu yil 70 yoshni qarshilayman. Umrinning tarixga aylangan yillariga nazar tashlasam, ko'z ochib yumganchalik vaqt o'tgandek, go'yo. Hech narsaga ulgura olmagandekman, nazarimda. O'ylasam, hali qilishim kerak bo'lgan ishlar juda ko'p. Lekin vaqt qarab turmaydi. U — oliy iakam.

Umr insonga sinov uchun beriladi. Uni yaxshi ishlarga sarflash, ortingizdan yaxshi nom qoldirish esa o'z qo'lingizda. Shunday ekan, umrning har lahzasidan unumli foydalaning, undan bahra olib yashang. O'qing, o'rganing, izlaning. Odamlarga yaxshilik qilishdan, go'zallikka intilishdan hech qachon charchamang.

Sa'dullo  
TURSINOV  
yozib oldi



## «TONG YULDUZI» A'LOCHILARI

Mana, aziz o'quvchilar, sizlar bilan yana «Tong yulduzi» a'lochilari rukni orqali g'oyibona ko'rishib turibmiz. Bizga yuborayotgan maktublaringiz orqali gazetamiz bo'sh vaqtingizga mazmun baxsh etayotganini o'qib, juda quvondik. Ayniqsa, ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalarida erishayotgan yutuqlaringizdan, egallayotgan marralaringizdan boshimiz ko'kka yetdi. Keling, endi sizlarni gazetamizning eng a'lochi o'quvchilari bilan tanishtiramiz:

### SAMARQANDLIK MOHINISO



Bu ijodkor o'quvchini bir-biridan qiziq maqolalari orqali yaxshi tanisiz. Uning ona Vatan, maktab, bilim olish haqidagi she'rlari ko'pchiligingizga manzur bo'lgan. Mohiniso Boboqulova O'zbekiston yoshlar ittifoqining Pastdarg'om tuman Kengashining «Salomatlik va ekologiya» yo'nalishi treneri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Samarqand viloyat bo'limi qoshidagi «Sadoqat» to'garagining faol a'zosi. Mohinisoning orzulari bir o'lam. Tahririyatimizda mehmon bo'lgan bu ijodkor qizimiz ayni damda Pastdarg'om tumani tibbiyot kollejida tahsil oladi. Sevimli gazetasi esa unga ilhom bag'ishlaydi. O'tgan yili Mohinisoning «Yuragim-dasiz» nomli she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Bu esa uning ijodiga qanot bo'lishi, shubhasiz.



### ORZULARI OLAMNI QUCHDI

Bu qizning orzusi nima ekan, deyatogandirsiz? Keling, avvalo, biz u bilan yaqindan tanishaylik. Sokina Sulaymonova Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 6-sinfida tahsil oladi. Ona tili va adabiyot faniga qiziqadigan Sokina maktabda tashkil etilgan adabiyot to'garagining faol a'zosi. Mashg'ulot rahbari Ra'no opa Tursunovadan she'r, maqolalar yozish sirlarini qunt bilan o'rganib kelayotgan ushbu tengdoshingiz she'rlar yod olishni xush



ko'radi. U Zulfiyaxonimning 50 ta, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning 200 ta, Axtamqulning 100 ta she'rini yoddan biladi. Ijodkor qiz maktabda o'tkaziladigan barcha tadbirlarda faol qatnashib, tengdoshlarining olqishiga sazovor bo'lmoqda. Quyida uning ijodidan sizga ham ilindik:

*Osmonimiz erur musaffo,  
Biz o'qiyimiz doimo a'lo.  
Buloqlardan suvlar oqadi,  
Yer yuzida yurtimiz tanho...*

**Aziz o'quvchilar! Biz bilan orzu-intilishlaringiz, qiziqishlaringiz haqida o'rtoqlashing va a'lochilar safidan o'rin oling. Maktublaringizni kutamiz!**

Ozoda  
TURSUNBOYEVA



## «GULISTON» DAN BAHRA OLISHDI

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-DIMIDA, mana bir necha yildirki, ta'lim maskani o'quvchilari, o'qituvchilari orasida kitob mutolaa qilish an'anaga aylangan.



O'tgan o'quv yilida Alisher Navoiyning «Xamsa»si mutolaa qilingan bo'lsa, joriy o'quv yilida Sa'diy Sheroziyning tarbiyaviy mazmundagi hikoyalardan tashkil topgan «Guliston» asari o'quvchilar va maktab jamoasining sevimli kitobiga aylandi. O'quvchilar tomonidan asar yuzasidan savol-javoblar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Sinfklar kesimida g'olib chiqqan jamoalarga «Eng faol kitobxon», «Eng zukko jamoa» nominatsiyalari bo'yicha diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish maqsadida tashkil etilgan xayriy an'ana samarasi kitobxonlar bilan gavjum kutubxona misolida o'z aksini topmoqda. Maktab-internet jamoasi ikkinchi yarim yillikda Kaykovusning «Qobusnoma»sini o'qishni rejalashtirgan.

## SHE'RXONLIK TANLOVI

**Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari ularning og'zaki nutqlarini o'stiribgina qolmay, kitobga bo'lgan qiziqishlari, izlanuvchanlik qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.**

Bu borada turli badiiy, fanga doir kechalar, suhbatlar va tanlovlar alohida ahamiyatga ega.

Buxoro tumanidagi 9-umumta'lim maktabida o'quvchilarni kitobxonlikka targ'ib etish maqsadida 2-4-sinflar o'rtasida she'rxonlik tanlovi o'tkazildi. Bunda o'quvchilar «Vatan», «Ona», «Tabiat», «Maktab» haqida yod olgan she'rlarini ifodali o'qish bo'yicha bellashdilar.

Kitobxonlardan Malikabonu Ubaytovaning ifodali o'qishi 1-o'ringa loyiq deb topildi. 2-o'rin Sarvinov Ro'ziyevaga, 3-o'rin Sabina Hasanovaga nasib etdi. Shuningdek, Anora Namozova, Malikabonu Abdurahmonova, Dilnoza Sayfullayeva, Shahlo Hasanova kabi o'quvchilar yod olgan she'rlar tadbir ishtirokchilariga manzur bo'ldi.

– Kitob o'qish insonni izlanishga chorlaydi. Bundan keyin men ham kitob bilan do'stlashaman, – deydi Malikabonu.

## KIM KO'P KITOB O'QIGAN?

**Do'stlik tumanidagi 7-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnora opa maktabdan chiqar ekan, 17-boshlang'ich ta'lim maktabi tomon yo'l oldi.**

Sinfxonaga mo'raladi. 30 yillik tajribaga ega Gulchehra Ergasheva o'quvchilarning daftarlarini tekshirib o'tirgan ekan. Uning salomidan ustozning xayoli bo'lindi:

– Assalomu alaykum, Gulchehra opa! Ahvolingiz yaxshimi? Sizni izlab kelgandim.

– Keling, keling, xizmat?!

– O'g'lim Ziyodullaning o'qishi, odobini urishirib...

– Farzandingizdan hech qanday shikoyat yo'q. Ammo siz bilan o'z tajribamni o'rtoqlashmoqchi edim.

– Xo'sh, xo'sh...

– Pedagogikada o'z isbotini topgan bir haqiqat bor: bola besh yoshgacha qanday bilim va hayotiy tasavvurlar olsa, uning kelajagi ham shunga mos bo'ladi. Men ushbu holatga o'zimning tajribamni qo'shib, bir haqiqatni kashf etdim.

...Chaqaloq alla tinglab katta bo'ladi. Ertak eshitib voyaga yetadi. Maktabga qadam qo'ygach, yozishni, o'qishni o'rganadi. Og'zaki nutqi bilan birga yozma nutqi ham rivojlanadi. O'quvchilar ko'p kitob mutolaa qilsa, tez o'qish me'yori ham bajaradi. So'zlarning shakli o'quvchi ongida muhrlanadi. Natijada, so'zlarni xato yozmaydi.

Mana, sinfimdagi Z. Axmatov,



I. Ma'mirova, Sh. Bahodirova, B. Shamsiddinova tez o'qish

me'yorini ortig'i bilan bajaradi. Diktant daftarida birorta «4» baho yo'q, barchasi «5». Demak, kitobxonlik, tez o'qish, o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirar ekan. Hozir o'quvchilarning keladi. Dars boshlanguncha o'qish mashg'ulotini o'tkazamiz.

Ustozning so'zi tugar-tugamas, 3-«A» sinf o'quvchilari qo'llarida turli ertak kitoblarini ushlaganacha ustozini qurshab oldi. Gulnora opa xursandligidan o'g'lining ustozini bilan xayrlashishni ham unutdi. U yo'l-yo'lakay farzandining kelajagi, aynan, Gulchehra opadek fidoyi ustoz qo'lida ekanligidan faxrlandi. Boya unutan rahmatni ota-onalar nomidan «Tong yulduzi» orqali baralla aytmoqchi.

USTOZ, SIZGA KUCH-QUVVAT, OILAVIY BAXT TILAYMIZ!

Nurbek QIDIRALIYEV  
yozib oldi



The roots of education are bitter, but the fruit is sweet.

Bilm olish mashaqqatli, ammo mevasi shirin.  
ARASTU

# QIRDA QUYUN BILAN KURASHGAN BOLA

Ijod insonga Yaratgan tomonidan berilgan ulug' ne'mat. Ohanglar bilan quyilib kelgan rangin zalvorli satrlar yuraklarning nozik torlarini chertganida, hushyor tortasan. Haqiqiy she'r bolalar nigohidek beg'ubor bo'ladi. Bolalikning hayratlarga limmo-lim dunyosi sening ko'ngling olamini umr bo'yi yoritib turgan bo'lsa, ajabmas.

Qishloq, qizg'aldoqlar ungan loysuvoq tomlar, ishkamlarda «nozlangan» uzumlar, bolalarning qiy-chuvlaridan sarxush bo'lgan ko'chalar, sochlari patila bo'lib, to'ptosh o'ynayotgan qizaloqlar kinotasmadek ko'z oldingdan o'tib boraveradi. O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning «Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?!» nomli she'riy kitobini varaqlaganda, beixtiyor tug'ilib o'sgan qishloq, bolalik bilan bog'liq shirin xotiralar ko'z oldingizda namoyon bo'ladi:

Sochlaring patila, to'ptosh o'ynarding, Tirmog'ingda shu'la, manglayingda nur. To'ptoshlaring sochib ketsam, yig'laring, «Onamga aytaman, hali qarab tur!»

Arazlarding, lekin arz qilmas eding, Hammadan yaxshi qiz eding, bilardim. Baribir, sochingdan tortardim sening, Baribir, sochingdan tortгим kelardi...



Sog'inchning sehrlil ranglari jilolanib turgan satrlardan arazlasa ham arz qilmaydigan qizaloqning

O'shanda o'zim ham olov edim-da, Tushovini uzgan toyga o'xshardim. Akamning choponin ilib egninga, Qirda quyun bilan kurash tushardim...

Shoir she'rlarini o'qib, bolalikning baxtiyor damlari, qirda quyun bilan kurashayotgan qolakayning borliqqa sig'maydigan beg'ubor olamiga mahliyo bo'lamiz.

Iqbol Mirzoning ushbu kitobini qo'lga olgan o'quvchi hushyor tortadi. Chindan ham bu dunyoga kelib «Vatan uchun nima qildim?» degan savol bilan yuzlashganda, kishi behuda o'tkazgan damlarini sarhisob qilishga tushadi. Bu yorug' olamda o'zidan yorqin iz qoldirishga oshiqadi. Shoirning sara she'rlari jamlangan to'plami o'quvchilar qalbining tub-tubidan joy olishiga aminmiz.



AXTAMQULI

## Lesson 4

### WRITE THE CORRECT HOMOPHONE



1. Write-right
2. Week -
3. Mail -

4. High -
5. Hare -
6. Bore -



7. Aunt -
8. In -
9. Flower -
10. Ate -



Your teacher  
Ma'mura G'ULOMOVA

### WINTER TEST

Winter (1...) a season of dreams. Because (2...) winter we celebrate the best holiday. Yes, it is New Year (3...) is (4...) on the first of January. (5...) New Year people give each other celebration (6...) We can't image New Year table (7...) special cake. And we (8...) decorated house. In addition, I should mention is that New Year is consisted (9...) 365 days and 365 (10...)

1. A) is; B) was; C) are.
2. A) to; B) on; C) in.
3. A) who; B) where; C) which.
4. A) celebrate; B) celebrated; C) celebrating.
5. A) on; B) in; C) at.

6. A) cards; B) cake; C) money.
7. A) with; B) without; C) of.
8. A) should; B) need; C) must.
9. A) with; B) in; C) of.
10. A) senses; B) chances; C) dates.

Qunduzoy YUSUPOVA,  
the pupil of academic lyceum under the World economy and  
Diplomacy University

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### Time idioms




A devil of time	A difficult time.
Ahead of time	Earlier than a given deadline.
A question of time	Used for saying that something will definitely happen, but you are not sure when.
A rare old time	Enjoyable time.
All in good time	An expression that encourages patient.
Have a time of it	To experience particular trouble.

#### Exercise. Full fill the gaps.



1. If we get to the cinema ahead of time, we'll have our pick of good seats.
2. We had ... at Dilshod's the other day.
3. I know you wish your old car had sold already, but in ...
4. We all ... after our father died.
5. We had ... convincing grandmother to go to the doctor for that bad cough.
6. It is only ... before someone gets seriously hurt.

### FIND AND MATCH



Dinora ABDULLAJONOVA

## ISLOM BOBOMGA

Bugun el daryo bo'lib oqayotir Siz tomon, Tunda oy, kunduz quyosh boqayotir Siz tomon, Bobomizning ruhini qilaylik deb ziyorat, Keksa-yu yosh barobar chiqayotir Siz tomon.

Hazrati Xizr yoni gullarga to'layotir, Rozi el qabringizni tavoflar qilayotir. Qabringizni burkagan oppoq gullar qatidan Jannatiy nasimlarning nafasi kelayotir.

Endi tinch yoting Bobo, guldan ko'rpalar yopib, Samarqand quchog'ida orom-halovat topib. Biz qasamyod qilamiz Sizga sodiq bo'lishga Buyuk O'zbekistonning buyuk bayrog'in o'pib.

**Mohlaroyim JO'RAYEVA,**  
Farg'ona shahar huquqshunoslik kolleji o'quvchisi



## NURLI YO'LIMSAN

Vatan, ona tuprog'im, nafis gulimsan, Quyoshli charog'on, nurlu yo'limsan. Bayrog'ing ko'klarga ko'targim doim, Sen mening hayotim, jon-u dilimsan.

Orzu-umidlarni bizga berding sen, Ularga erishib ulg'ayaman men. Sening kelajaging mening qo'limga, Borliq tuprog'ingga bo'lolmaydi teng!

Bor borlig'im bilan nafas olaman, Goh unsiz tikilib o'yga tolaman. Seni ardoqlayman doimo, Vatan, Sen bilan doimo birga qolaman.

**Malika ALLAYEVA,**  
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

## SHUDIR BIZNING BAXTIMIZ

Qancha yovlar ortda qolib, Iqbol kuldi biz tomon. Olg'a yurib qadam bosib, Yashnadi O'zbekiston.

Vatanimiz yanada, Go'zallashib bormoqda. Yuksalishlar bizlarning, Xayolimiz olmoqda.

Vatan obod bo'lsa gar, Murg'ak ko'nglimiz to'lar. Kulib tursa yuzimiz, Shudir bizning baxtimiz!

**Ma'mura BO'RONOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

## «NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

### (Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Men-chi, aziz nabiram, gapning rosti, sening ko'zlarini yaxshi ko'raman. Nimaga, deysanmi? Odamlar orasida shundaylar borki, judayam ko'zi qattiq. Birovga qarasa, teshvoray deydi. Undaylardan darrovda odam o'zini olib qochadi. Bilsang, bu illat ham bolalikdan shakllanadi, chirog'im. Undaylarga bolalikdan muloyim qarashni o'rgatishmagan-da. Senga bir voqeani aytib beraman, eshit:

Bir yigit ish bilan shaharga tushibdi. Oshxonaga tushlik qilgani kirib, bir otaxon bilan baqamti kelib qopti. Ota qiziquvchan ekan, qayerdanligini so'rab-surishtiribdi. Yigit qishlog'ini aytibdi. Ota yigit yashaydigan qishloqni bilar ekan. Kimning o'g'li ekanini so'rabdi. Yigit

otasining ismini aytibdi. Otaxon yigitga sinchikov qarab: «Eslagan-

hayron bo'lib, «O'g'il degani o'zining otasini ham bilmaydimi hech jahonda?!» debdi. Shunda yigit: «Uzr, otaxon, men otamga hecham tik qaramaganman», degan ekan.

Shunday, har qanday holatda ham ustozlar, ota-onalar, umuman, katta-yu kichikka tik qaramaslik kerak. Ayniqsa, kattalar tartibga chaqirib, qattiq gapirganlarida. Bir marta, ikki marta tik qaradingmi, bo'ldi, ko'zing qotib qoladi. Keyin uni hech qa-

chon yumshata olmasan. Qattiqlik qorachiqqa o'rmashib qoladi-da. Men sening ko'zlarindan xotirjamman, bolam.

(Davomi bor)



## TIK QARASH

dekman, otangizning peshonasi keng, qoshlari o'siq, ko'zlari katta-katta edi, shundaymi?» debdi. «Bilmadim», debdi yigit kulib. «Nimaga bilmaysiz?» debdi otaxon

O'zga yurtga borsang sen, O'z uyingni qo'msaysan. Sog'inch ila har lahza, Vatanningni so'raysan.

**Ma'ruf ULASHEV,**  
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 258-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



Men shu yurtda tug'ildim, Vatanimni sevaman. Bog'laridan behisob, Mevalarni teraman.

Kindik qonim to'kilgan, Sevmay bo'lmas Vatanni. Ona kabi mo'tabar, Bilish kerak Vatanni.

Vatanimning tuprog'i, Har narsadan muqaddas. O'zga yurtda yurganlar, Uning qadrini bilmas.

## YURAGIDA OLAM QUVONCHI

**Durdona Bekmirzayeva so'lim**  
Farg'onaning Qudash qishlog'idan.  
Hozirda O'zbekiston tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 8-sinfida tahsil olmoqda.

U boshlang'ich sinfda o'qib yurgan kezarida-yoq, adabiyotga, san'atga alohida mehr qo'ydi. Zulfiya, Muhammad Yusuf, Saida Zunnunova, Hamid Olimjonlarning she'rlarini yod oladigan yosh iste'dod egasi o'zi ham she'r yozishni mashq qila boshladi. Uning adabiyotga bo'lgan qiziqishiga buvisi Saodatxon ayaning aytgan ertaklari turki bo'lgan.

**Uzun kechalarda tinglayman men jim,**  
Ertaklar aytadi mehribon buvim.  
So'ng savol beraman buvimga tinmay,  
Barisiga javob berar erinmay...

Uning ilk she'ri «Gulxan» jurnalida bosilganida, xursandligidan tongga qadar mijja qoqmay chiqqandi. Bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblarni mutolaasi bilan mashg'ul bo'ladigan ijodkor qiz hozirda «Munozara» to'garagining faol a'zosi. 2013-yilda uning «Qushlar qo'shig'i» nomli ilk she'riy to'plami bosilib chiqqan bo'lsa, yangi to'plami – «Durdona satrlar»dan ona Vatan, bolalik, do'stlik tuyg'ularini ulug'lovchi she'rlar o'rin olgan.

Durdona maktabda «Orasta qizlar» to'garagining sardori. Tashabbuskorligi va intiluvchanligi bois, to'garakdagi tengdoshlaridan yordamini ayamaydi. 2017-yilda «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Tanlovining Respublika bosqichida esa «Eng uddaburon o'quvchi» nomiga sazovor bo'ldi. Atrofdagilar Durdonadek orasta, lobar, zukko, iste'dodli o'quvchi bilan faxrlanadi.

Kamolingga ko'z tegmasin, orzulari osmon qiz!



## MAKONIMSAN

Temurni allalab ulg'aytirgan yurt, Senga ta'zim qilar bu jumlayi jahon. Mudom bag'ringdadir baraka-yu qut, Bundayin makonda keng bizga imkon.

Beshikda ulg'aygan har bir avlodning, Yetti iqlim uzra yozmoqda qanot. Boshingga qalqondir yaxshilar mehri, Sen uchun bitaman betinim bayot.

Faqat bugunnimas, ertani o'ylab, Kelajak sari tashlayman qadam. Noming she'rlarimda yuraman kuylab, Mana bugun bo'ldik mashhur-u olam.

Aslo yo'lamaydi yoningga qayg'u, O'g'lonlaring bugun Sino izdoshi. Mitti yuragimda dunyocho orzu – Porlasin to abad hayot quyoshi!

FERUZA

**USTOZLAR MAKTUBI**

miz. 2018-yil uchun sinfimiz bilan gazetaga obuna bo'ldik. Bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni kasbga yo'naltirish maqsadida insholar tanlovi, davra suhbatlari

**Sinfimda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p. Ular orasida Shahriyor Yoqubjonov o'zining tirishqoqligi, intiluvchanligi bilan ajralib turadi.**

o'tkazib turamiz. Shogirdlarim kelgusida O'zbekiston rivojiga munosib hissa qo'shishlariga ishonaman.

**Nodira QURBONOVA, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 20-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

Bir kuni u taxta va tunukadan yasagan chiroqli uy-ro'zg'or buyumlarini sinfdoshlariga ko'rsatgani olib keldi. O'quvchilar tengdoshining ishlanmalarini ko'rib, unga havasi ortdi. Men esa Shahriyorni maqtab, uni harakatlanuvchi buyumlarini yasashga undadim.

Yaqinda Shahriyor yana o'rtoqlarini qoyil qoldirdi. Do'kondan o'yinchoq

**Iste'dodli va mehnatga muhabbatli odam uchun hech qanday to'siq yo'q.**  
**L. BETHOVEN**

**SHAHRIYOR - KASHFIYOTCHI**

mashina olib, unga harakatga keltiruvchi mexanizm o'rnatdi. Shunda rag'bat Shahriyor uchun turtki bo'lganiga amin bo'ldim. Kelajakda undan ajoyib ixtirochi chiqsa, ajabmas...

**Nigora TURONOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 33-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**O'QUVCHILARIMGA ISHONAMAN**

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining jonkuyar ijodkorlari! Men 9-sinf o'quvchilariga ustozlik qilaman. Bolalar bilan ishlash menga juda yoqadi. Sizlar yoritayotgan maqolalarni o'quvchilarim bilan birga maroq bilan o'qiyimiz, muhokama qila-



**Navoiy shahridagi «Sug'diyona» sport saroyida kikkboxing bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi. Turnirda turli viloyatlardan kelgan yosh kikkboxingchilar orasida Konimex tumani uyushmagan yoshlari ham munosib ishtirok etdi.**

**YANGI TO'GARAK OCHILDI**

Sport maktabi boks bo'limi murabbiyi J. Urazboyev musobaqada 3-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, uyushmagan yoshlarni ushbu sport turiga qiziqtirish maqsadida R. Yo'ldoshev hamda R. Shoniyozovlar ham o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi. Yakunda R. Yo'ldoshev sovrindorlar safidan joy egalladi.

Konimex tuman bolalar va o'smirlar sport maktabi rahbariyati g'oliblarga ushbu maskanda yangi sport bo'limi ochilishida turtki bo'lganliklari uchun tashakkur bildirdi.

**KUHLILAR SARALANDI**

**Toshkent viloyati, Ohangaron tumani XTBga qarashli umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqasining hududiy bosqichi ko'tarinki ruhda o'tkazildi.**



Turnirda barcha o'quvchilar faol ishtirok etdi. Eng sara sportchilar orasidan hudud terma jamoasi tuzildi. 5-10-sinflar o'rtasida o'tkazilgan basketbol bahslarida 4-umumta'lim maktabi o'quvchilari 1-, 27-umumta'lim maktabi o'quvchilari 2-, 29-umumta'lim maktabi sportchilari esa 3-o'rinni egalladi. Voleybol bo'yicha bellashuvlarda 27-umumta'lim maktabi vakillari 1-, 4-umumta'lim maktabi o'quvchilari

2-, 28-umumta'lim maktabi jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Qo'lto'pi bahslarida 26-umumta'lim maktabi o'quvchilari 1-, 29-umumta'lim maktabi jamoasi 2-, 27-umumta'lim maktabi vakillari 3-o'rinni band etdi. Stol tennisi musobaqasida 28-umumta'lim maktabi vakillari 1-, 27-, 4-umumta'lim maktabi o'quvchilari keyingi o'rinlarni egalladi.

Shaxmat bahslarida 4-umumta'lim maktabi vakillari g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, yengil atletika va sport gimnastikasi bo'yicha 27-umumta'lim maktabi sportchilariga teng keladigan raqib topilmadi.

**Shukrulla G'ULOMOV**

**AKA-SINGIL CHEMAPIONLAR**

**Suratdagi ko'ksini shoda-shoda medallar to'ldirib turgan bu tengdoshlaringiz aka-singil Malika va Nuriddin Abduhakimov bo'ladi. Ular poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qish bilan birga taekvando to'garagiga qatnaydi. Nuriddin 6-«A», Malika esa 5-«A» sinfining namunali o'quvchilaridan sanaladi.**



Ular Samarqandda taekvandoning ITF turi bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida g'olib bo'lishgan. Hozirga qadar yosh chempionlar jam'argan medallar soni oz emas, ko'p emas 20 dan oshdi.

– Avvalo, bizga bilim berayotgan maktabdagi ustozlarimizdan minnatdormiz, – dedi aka-singil sportchilar. – Qolaversa, murabbiylarimiz – Boburjon Mahmudov va Shahboz Tirkashevlarining saboqlari tufayli sportda katta yutuqlarga erishdik. Ular o'z kasbining chinakam fidoiyisi, desak, adashmaymiz. Ustozlar bizga hayotda sabr-toqatli bo'lishni, o'z ustimizda tinmay ishlashni,

ko'proq kitob o'qishni, bilimli inson bo'lishni uqtiradi. Boburjon aka Mahmudov Birinchi Prezidentimiz tomonidan «Kobalt» avtomashinasi bilan taqdirlangan. Ular sport ustasi hisoblanadi. Shahboz Tirkashev bo'lsa II DAN qora belbog' sohibi. Biz shunday jonkuyar ustozlarimiz borligi bilan faxrlanamiz.

Pok va beg'ubor niyatingiz o'zingizga yo'ldosh, omad va quvonch doimo hamrohingiz bo'lsin, aziz bolajonlar!

**Manzura UBAYDULLAYEVA** tayyorladi



GAZETAMIZDA YANGI RUKN:

# BU NIMADAN YASALGAN?

**Salom, hamma narsaga qiziquvchan, sersavol bolajonlar! Gazetamizda yangi tashkil qilingan «Bu nimadan yasalgan?» rukni orqali buyumlarning qanday yasalishi haqida ma'lumotlar berib boramiz. Buning uchun o'zingizni qiziqtirayotgan narsalar haqida bizga maktub yo'llasangiz bas, barcha savollaringizga javob topishga harakat qilamiz.**

Bugun sizlarga har kuni papkangizning yon cho'ntagidan joy egallab, ichimlikni issiq saqlab turuvchi termoslar haqida ma'lumot beramiz. Bu borada bizga Toshkent kimyo-texnologiya institutining fizika kafed-rasi katta o'qituvchisi Muhammadsodiq Mamatqulov yordam beradilar:

– Qish kunlarida bolajonlarimiz uchun termoslar juda asqotadi. «Termos» so'zi grekcha «therme» – «issiq» so'zidan olingan. Bu maishiy buyum ilk bor



1903-yili berlinlik Reyngold Burger tomonidan ishlab chiqarilgan. Uning asosini shisha va zanglamaydigan po'latdan qilingan ikki devorli kolba tashkil etadi. Bu devorlar orasidan havo siqib chiqarilib, vakum hosil qilingani uchun bug'lanish ro'y bermaydi. Suyuqlik uzoq vaqt issiq holda turishi uchun esa termosga suvni to'ldirib solishingiz lozim. Shunda ichimlikning bug'lanishiga joy ham, imkon ham qolmaydi. Termoslarning ustki qismi esa ko'pincha metall yoki plastmassadan yasaladi. Bugungi kunda siz nafaqat suyuqlik, balki tushlik uchun taomingizni ham termoslarda saqlashingiz mumkin. Bundan tashqari, ba'zi mahsulotlar uchun muzlatgich vazifasini o'taydigan termoslar ham bor. Ular haqida yoz mavsumida ma'lumot bersak, maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

SAYYORA tayyorladi



## TEST

**1** «Alpomish» dostonining eng mukammal nusxasi 1927–1928-yillarda qaysi baxshi tomonidan yaratilgan?

- A) Xodi Zarif;
- B) Fozil Yo'ldosh o'g'li;
- D) Xalq tomonidan;
- E) Mahmud Zaripov.

**2** «Qissasi Rabg'uziy» asari kimning buyrug'iga binoan yozilgan va necha qissadan iborat?

- A) Nosiruddin To'qbo'g'a 72 qissa;
- B) Nosiruddin Burxoniddin 72 qissa;
- D) Muallifning o'zi 71 qissa;
- E) Eltarish Xoqon 73 qissa.

**3** Navoiy nechta tuyuq yaratgan?

- A) 11 ta;
- B) 12 ta;
- D) 13 ta;
- E) 14 ta.

**4** Boburning aruz vazni haqidagi asari nomini toping.

- A) «Mezon ul avzon»;
- B) «Muxtasar»;
- D) «Munshaot»;
- E) «Tuzuki Boburi».

Gulmira SODIQOVA, Toshkent bank kolleji o'qituvchisi

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

						Asaka avto markasi						
Xiva-dagi obida	Ser-urug' meva	Vatanimizdagi pastovchilik	Gazlama, material	Musiqiya yozuvi	Futbol jamoa (Yevropa)	Amerika qit'asi kashfiyotchisi	Musiqali sahna san'ati	Mexanik zina				
Bahaybat janub hayvoni		Chuqur soylik Erta tong			Chexiya avto markasi		Mulzam, so'zsiz holat					
			Yapon-farga xos libos	Mukofot sohibi				To'rtinchi nota				
		Sport maydoni	<b>Kishilar savdosi boshimdan yiroq, Erta-kech bo'lmisham kitobga o'rtoq. Kamoliddin BINOIY</b>					Shaxmatdagi holat	Danak-siz quruq meva			
Samo, falak	Poytaxti – Katmandu	Mato to'qish ashyosi					Zeb, pardoz	Janubiy Amerika to'rtisi				
						Ekran san'ati	Musiqiy ovoz turi	Suvsevar donli ekin	★			
Jundan to'qilgan gazlama					Neft yoqilg'isi	... qaytaruvchi (jonivor)				Pardoz ashyosi		
		Buyum pardozlari suyuqligi		Millat				Qori-shiq tus				
Avlod, urug'	Qit'a			Afsonaviy fazokor	Rahbar lavozimi	Xalq, ulus						
		Ayyom oldi kuni	Toza, musarfo	Tasviriy san'at								Oshxonaning anjomi

Tuzuvchi: Foziljon OROPOV



## BOLANING TILI SHIRIN

Maktabga endigina qadam tashlagan Usmonbekni sinashdi:

- «B» harfiga bir so'z ayting.
- «Bobo».
- Yana bitta ayt-chi?
- «Bobo».
- Buni aytding-ku.
- Bu boshqa bobo-da. Nega tushunmaysiz? \*\*\*



Ariqdagi suvda choynakman-piyolalarni yuvayotgan asmasidan Usmonbek so'radi.

– Ammajon, idishlarni cho'miltiryapsizmi?

Maqsuda RAHMONOVA, Andijon viloyati, Buloqbooshi tumani